

## **Garov reestri to'g'risida"gi Qonunining mazmuni, mohiyati va talablarini tushuntirish masalalariga bag'ishlangan matbuot anjumani**

2014 yil 27 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasi tomonidan shu yilning 1 iyulidan boshlab kuchga kiramagan "Garov reestri to'g'risida"gi Qonunining mazmuni, mohiyati va talablarini tushuntirish masalalariga bag'ishlangan matbuot anjumani tashkil etildi.

Mazkur anjuman ishida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Banklar Assotsiatsiyasi hamda respublikamiz moliya-kredit tashkilotlarining ma'sul xodimlari, shuningdek O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, ommaviy axborot vositalari, Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarining eksportini qo'llab-quvatlash jamg'armasi, "Kamolot" yoshlari ijtimoiy harakati vakillari, Bank-moliya akademiyasi magistrantlari hamda bank-moliya yo'naliqidagi kasb-hunar bank kollejlari o'qituvchilari va talabalari ishtirok etdi.

Matbuot anjumani ishtirokchilar qayd etishdiki, mazkur qonun tayyorlanishiga davlatimiz rahbarining "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi", "Ishbilarmenlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni va "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustivor yo'nalichlari to'g'risida"gi qarori asos yaratdi.

Mazkur qonunning asosiy maqsadi kredit, qarz va boshqa moliyaviy operatsiyalarni rasmiylashtirish jarayonlarini yanada takomillashtirish, mulkni garovga qo'ygan holda moliyaviy xizmatlar ko'rsatilayotganda kreditorlarning risklarini kamaytirish evaziga kichik biznes tuzilmalarini moliyalashtirishni kengaytirishga qaratilgan.

Ta'kidlandiki, qonunda ma'lumotlarning yagona bazasini shakllantirish orqali garov ta'minoti reestrini yaratish, reestrda qayd etiladigan ta'minot shakllarini aniqlash, reestr yurituvchi, uning huquq va majburiyatlar, shuningdek aktivlar egalari hamda ularning kreditorlarining huquq va majburiyatlar huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan.

Qonunda haqqoniy garov axborotlarini yig'ish, qayta ishlash va uni garovga qo'yilgan mulkka huquqi bo'lgan yoki uni olishga ishtiyobi bo'lgan shaxslarga taqdim etish, shuningdek kreditorning garovga qo'yilgan mulkka garov huquqi mavjudligi va salohiyatlari qarz oluvchining garovga qo'yilgan mulkka doir axborotlarni taqdim etishi aniq belgilab berilgan.

Bundan tashqari, garov reestrda garov axboroti elektron shaklda qayd etiladi va yuritiladi. Garov axborotiga kiritiladigan o'zgarishlar va ularni olish telekommunikatsiya tarmog'i orqali elektron shaklda amalga oshiriladi. Garov reestridan uzlusiz foydalanish uchun real vaqt rejimida tegishli dasturiy ta'minot yaratilib, unda garov axborotini olish va qayd etish sodda shaklda tashkil etiladi.

"Garov reestri to'g'risida"gi qonunning kuchga kirishi bilan mamlakatimizda moliyaviy xizmatlar tizimini yanada rivojlantirishi, shuningdek moliya bozorida xizmatlar sifatini oshirish va raqobatni kuchaytirish, xalqaro andozalarga javob beradigan zamonaviy bozor infratuzilmasi kengayishiga, kredit tizimini yanada taraqqiy ettirish va istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga mazkur qonun soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlikka barham beradi, tadbirkorlik sub'ektlariga o'z mulkidan garov sifatida foydalanishiga sharoit yaratadi.

Matbuot anjumani yakunida soha mutaxassislari tomonidan anjuman ishtirokchilaridan kelib tushgan savollarga batafsil javob berildi.